



XALQARO MIQYOSDA FOYDALANILADIGAN HUQUQIY PLATFORMALARNING AHAMIYATI

Jabbarova Umida Abdimurat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, jinoiy odil sudlov fakulteti
1-kurs talabasi

e-mail:umidajabbarova00@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21902974>

ARTICLE INFO

Received: 10th August 2026

Accepted: 11th August 2026

Published: 12th August 2026

KEYWORDS

xalqaro huquq, huquqiy platformalar, raqamli axborot tizimi, Eur-Lex, WorldLII, LexisNexis, Westlaw, huquqiy shaffoflik, sun'iy intellekt.

ABSTRACT

*Ushbu maqolada xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan huquqiy axborot platformalarining ahamiyati va ularning global huquq tizimidagi o'rni va ahamiyati keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda **Eur-Lex, LexisNexis, Westlaw, WorldLII** kabi platformalar misolida xalqaro huquqiy ma'lumotlarga erkin kirish imkoniyatlari o'rganilgan. Maqola metodologik jihatdan **tarixiy, qiyosiy tahlil** va **analiz** usullari qo'llanilgan bo'lib, turli huquqiy platformalarning ma'lumot bazalari, ochiqlik darajasi va qamrovi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro huquqiy platformalar shaffoflikni ta'minlash, huquqiy yordam olishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotgani aytilgan. Shu bilan birga ayrim muommolar – til to'siqlari, texnik muommolar va ayrim platformalarda eski ma'lumotlarning yangilanmagani kabi holatlar yoritilgan. Maqolada ushbu tizimlarni zamonaviy axborot qurilmalari, masalan, sun'iy intellekt texnologiyalari bilan boyitish g'oyalari ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro huquqiy platformalar orqali huquqiy raqamlashtirish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kirish

Globallashuv davrida zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa raqamli axborot texnologiyalari kirib bormagan sohaning o'zi yo'q. Jumladan huquq sohasining o'zida ham turli platformalar orqali raqamlashtirish siyosati olib borilmoqda. Bu amaliyot nafaqat milliy balki xalqaro darajada e'tirof etilib kelinyabdi. Bunig asosiy sabablari huquqiy axborot almashinuvi xalqaro hamkorlikning ajralmas tarkibiy qismiga aylangani, jahon miqyosida siyosiy, iqtisodiy, va ijtimoiy munosabatlarning kengayishi natijasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida huquqiy axborotlarning tezligi, aniq va ishonchligi ehtiyojga aylandi. Zamonaviy axborot texnologiyalari rahbarlarga, mutaxassislariga, texnik xodimlarga axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilishda, o'z vaqtida ishonchli va kerakli hajmda axborot olish, avtomatlashtirilgan ofislar tashkil etish, kompyuterlar va aloqa vositalarini qo'llagan holda tezkor majlislarni o'tkazish uchun mo'ljallangan zamonaviy axborot

tizimlarini yaratish imkonini beradi.¹ Bu imkoniyatni esa elektron aloqa orqali amalga oshirish mumkin. Elektron aloqa axborotlarni qayta ishlash va uzatishda elektron usullardan foydalanishdir.² Ayniqsa, turli onlayn ma'lumot bazalari, elektron hujjatlarni yuborish aynan elektron aloqa orqali amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida huquq sohasida ham turli onlayn platformalar ishlab chiqilgan. Ayniqsa, xalqaro doirada yaratilgan va dunyo mamlakatlari tomonidan faol qo'llaniladigan huquqiy axborot platformalari global huquqiy tizimning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Shunday platformalarga misol sifatida **LexisNexis, Westlaw, WorldLII, Eur-Lex, Ross intelligence** tizimlarini keltirish mumkin. Ushbu platformalar xalqaro huquqiy hujjatlar, shartnomalar, normativ-huquqiy hujjatlarning yagona ochiq bazasini taqdim etadi. Ular orqali foydalanuvchilar – yuridik, jismoniy shaxslar xalqaro qonunchilikdagi o'zgarishlarni, yangi shartnomalar, deklaratsiyalar va huquqiy tamoyillar bilan real vaqt rejimida tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jihatdan xalqaro platformalar nafaqat huquqiy axborotni tarqatish vositasi sifatida balki xalqaro miqyosda adolatni ta'minlash, insonlarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning elektron mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro platformalarning ahamiyati va dolzarbligi o'tgan asrdan boshlab ommalasha boshlagan. Xususan, **Covid-19** davrida xalqaro platformalarning o'rni va roli yanada kuchaydi. Justice Defenders tashkiloti Afrikadagi mahbuslar uchun adolat va odil sudlovga kirishni ta'minlash maqsadida huquqiy ta'lim, o'qitish va amaliyot orqali faoliyat yuritadi. "Kenya va Ugandadagi 46 ta qamoqxonada biz himoyasiz jamoalari – mahbuslar va qamoqxona xodimlarini **paralegal** ya'ni yuridik yordamchi va advokatlarga aylantirish uchun huquqiy xizmat ko'rsatish imkonini beradigan huquqiy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaymiz. Adolat Covid-19 pandemiyasi davrida ham to'xtab qolmasligi uchun biz paralegal tayyorlash dasturimizni masofaviy shaklda yo'lga qo'ydik hamda qamoqxonalarni sudlar bilan bog'lash orqali sudyalalar uchun virtual sud majlislari o'tkazish imkonini yaratdik."³,- deydi Justice Defenders tashkiloti o'z hisobotlarida. Xalqaro platformalar xalqaro va milliy darajada adolat va shaffoflikni ta'minlash hamda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha tayanch model hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli huquqiy tizimdan foydalanish orqali davlatlar o'rtasida qonunchilik va adolat uyg'unligi, inson huquqlarini himoya qilishning kafolatlari yotadi. Xalqaro platformalar orqali iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy ma'lumotlar olishimiz va yuridik xizmatlardan foydalanishimiz mumkin. Kundalik hayotda raqamli huquqiy platformalarning ahamiyati faqatgina inson huquqlarini ta'minlabgina qolmasdan, xalqaro huquq normalarini milliy huquq normalariga integratsiya qilishga xizmat qiladi. Masalan, **Eur-Lex** tizimi Yevropa Ittifoqi qonunchiligini raqamli shaklda saqlaydi. Bunda reglamentlar, deklaratsiyalar, qarorlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar muntazam yangilanib turadi. Bu esa davlatlar o'rtasida milliy qonunchilik tizimini xalqaro tajribani o'rgangan holda implimentatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2019-yilgi **"Digital justice and the rule of law"** hisobotida ta'kidlashicha, huquqiy platformalar nafaqat yuridik ma'lumotlarni tezkor taqdim etadi, balki huquqiy savodxonlikni oshiradi, korrupsiyani kamaytiradi va sud tizimining samaradorligini oshiradi.⁴ Yuqorida keltirilgan dalillar xalqaro huquqiy platformalarning global adolat tizimidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bois, maqola doirasida mazkur tizimlarnig amaliy tahlili, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda takomillashtirish yo'llari muhokama qilingan.

Usullar

¹ Alimov.R.X va boshq.Axborot tizimlari 2013.O'quv qo'llanma.

² Alimov.R.X va boshq.Axborot tizimlari 2013.O'quv qo'llanma.

³ Justice Defenders. 2021. Ensuring access to justice in African prisons during Covid-19. <https://www.justice-defenders.org>

⁴ Digital justice and rule of law: Leveraging technology for access to justice. New York: United Nations.

Mazkur tadqiqotda birinchi navbatda **tarixiy metod** qo'llanadi, chunki xalqaro huquqiy platformaning shakllanishi va rivojlansh jarayoni bevosita platformalarning yaratilishi va uning asosi bo'lmish sun'iy intellektning paydo bo'lish jarayoni bilan bog'liq. Umuman olganda barcha platformalarning asosini sun'iy intellekt tashkil qiladi. Sun'iy intellekt dastlab o'tgan asrning 50-yillarida paydo bo'lgan bo'lib, asosan mayda algaritmlarni bajarish vazifasini bajargan keyinchalik takomillashib borib, platformalar uchun o'zak vazifasini bajarmoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan birinchi huquqiy platformalardan biri bu – **Ross Intelligence** bo'lib, u huquqshunoslarga qonuniy hujjatlar, sud qarorlari va normativ hujjatlarni tahlil qilishda yordam berish uchun yaratilgan. Bu platformaga **Andrew Arruda, Jimoh Ovbiagele va Poonam Santhalia** tomonidan asos solingan. Platformaning asosiy maqsadi advokatlar, yuristlar, sudyalalar uchun huquqiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish, ularning ish vaqtini qisqartirish va aniqlikni oshirish edi. Ross savollarga mos ravishda sud qarorlari, huquqiy tahlillar va manbaalarni tezkor tartibda topib beradi. Biroq 2020-yilga kelib Ross Intelligence huquqiy muommolarga duch keldi. Westlaw kompaniyasi egasi Thomson Reuters Rossni mualliflik huquqini buzganlikda ayblab, sudga murojaat qildi. Unga ko'ra Ross Westlaw ma'lumotlarini ommaviy ravishda nusxalash orqali foydalanib, mualliflik huquqini buzgan. Hozirgi vaqtda ish hal etilmagan, jarayon sekin ketmoqda va aniq yakun ko'rinmayabdi.⁵ Tarixiy tahlil orqali LegalTech platformalrining, jumladan, Ross Intelligence, LexisNexis, WorldLLI, Donot pay evolyutsalarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. **Qiyosiy-tahlil** metodi orqali xalqaro platformalarni bir-biriga taqqoslash orqali ularning imkoniyatlari, yuridik amalyotdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Eur-Lex platformasi Yevropa Ittifoqining rasmiy huquqoy axborot partali bo'lib, Yevropa Ittifoqi hujjatlarini taqdim etadi hamda platformaning e'tiborli jihati shundaki u 24 ta rasmiy Yevropa Ittifoqi tilida hujjatlarni izlash imkoni beradi, shuningdek hujjatlarning qabul qilinishidan e'lon qilingunga qadar bo'lgan jarayonini ko'rsatadi hamda bepul.⁶ **WorldLLI** platformasi dunyoning bir nechta davlatlarining yuridik ma'lumotlarini o'zida jamlagan xalqaro miqyosadagi bepul platforma. Bu platforma turli davlatlarning yurisdiksiyasini solishtirish imkonini beradi hamda huquqiy tadqiqotlar uchun qulay vosita sanaladi. Shu bilan birga, ma'lumotlar yangiligi va to'liqligi jihatdan professional platformalar darajasida emas. **DonotPay** platformasi ham huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha samarali huquqiy platforma hisoblanadi. Bu platforma odatda oddiy foydalanuvchilar mo'ljallangan platforma bo'lib, sun'iy intellekt orqali kundalik huquqiy masalalarni avtomatlashtirilgan tarzda hal qiladi. Platforma asosan yuridik xizmatlarni kengroq auditoriyaga yetkazish orqali huquqiy demokratizatsiyani ta'minlashga intiladi. **LexisNexis** — kontentga asoslangan ish jarayonlari yechimlarini taqdim etuvchi yetakchi global provayder hisoblanadi. Ushbu kompaniya ilm-fan, buxgalteriya, korporativ biznes, davlat idoralari, huquqni muhofaza qilish, yuridik faoliyat va xavf-xatarlarni boshqarish kabi sohalarida professional ma'lumot va yechimlar beradi. LexisNexis — obuna asosida ishlaydigan xizmat bo'lib, uning ikki ma'lumot markazi Ohio shtatidagi Springfield va Miamisburg shaharlarida joylashgan. Bu markazlar o'z turidagi eng yirik komplekslar qatoriga kiradi va LexisNexisga "dunyoning eng to'liq va keng qamrovli onlayn ma'lumotlar to'plamlaridan biri"ni taqdim etishga imkon beradi. LexisNexis ma'lumot markazlarida tarmoq serverlari, dasturiy ta'minot va telekommunikatsiya uskunalari joylashgan bo'lib, ular LexisNexis mahsulotlari va xizmatlarining asosiy komponentini tashkil qiladi. Ushbu markazlar LexisNexis Group Inc.ga ilova ishlab chiqish, sertifikatlash, ma'muriy xizmatlar va test jarayonlarida yordam ko'rsatadi. Barcha kompleks esa Reed Elsevier kompaniyasining boshqa sherik kompaniyalariga xizmat qiladi.⁷ Tahliliy jihatdan xalqaro platformalar sun'iy intellekt va interaktiv qidiruv imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa huquqiy

⁵ Effects of Ross Intelligence and NDAS, highlighting the need for AI regulation. 2024

⁶ Eur-Lex. 2025. <https://eur-lex.europa.eu>.

⁷ Encyclopedia of big data. 2022.

tadqiqotlarni tezlashtiradi hamda xatoliklarni kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari bepul platformalar keng auditoriya uchun imkoniyat yaratadi, aytish mumkinki, Westlaw, LexisNexis kabi premium huquqiy platformalar chuqur hamda professional xizmat ko'rsatadi. Tadqiqotda **analiz** usulidan ham foydalangan bo'lib, uning markazida har bir platformaning huquqiy ma'lumotlar yig'ish, qayta ishlash, taqsimlash va foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirishdagi samaradorlik tushuniladi. Platformalarning barchasi kompleks tizimli yondashuvga asoslangan. Har bir platforma yuridik axborot tizimining alohida tizimi emas, global huquqiy tizimning bo'lagi sifatida o'rganiladi. Platformalarning ahamiyati va tahliliy ko'rsatgichini baholash ko'rsatgichlari bo'lib, ularga ma'lumotlarning ishonchliligi, huquqiy amalyotga ta'sir ko'lami, ochiqlik darajasi kabilarni misol keltirsak bo'ladi. Analiz metodi orqali xalqaro platformalar o'rtasidagi farq, huquqiy axborot tizimidagi texnologiyalarni qo'llash va turli xil yondashuvlardan foydalanish mumkinligini aniqlashga xizmat qiladi.

Natijalar

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquqiy axborot platformalari o'rtasida muhim farqlar bor. Platformalarning yangilanish tezligi va xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lum tafavutlar aniqlangan. Masalan, ayrim platformalarda bepul kirish imkoniyati mavjud bo'lsa ayrimlarida bu funktsiya yo'q. Ushbu tadqiqotning ahamiyatini o'rganish uchun mavjud statistikalar tahlil qilindi. Huquqshunoslar va olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida yoritildi. Tahlil qilingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquqiy platformalarga ehtiyoj va ularni qo'llash darajasi so'ngi yillarda keskin oshgan. Masalan, xalqaro huquqiy platformalarda onlayn huquqiy xizmatlar orqali mijozlar bilan onlayn aloqalar qilish ehtiyoji ham oshgan ya'ni taxminan 55% mijozlar huquqiy xizmatlar uchun onlayn aloqa usullarini afzal ko'rayotgani keltirilgan.⁸ Bu holat platformalarning faolligini va ular orqali erishilayotgan huquqiy axborot almashinuv hajmini ko'rsatadi. Xalqaro platformalar ishlash samaradorligi jihatdan ham ijobiy baholanib kelinmoqda. Xususan, aynan huquqiy xizmatlar bo'yicha jahon bozorining hajmi 2024-yilda taxminan 960,56 milliard AQSH dollariga yetgan. Olimlarning ta'kidlashicha bu ko'rsatgich 2029-yilda 1 342,55 milliard AQSh dollarigacha o'sishi prognoz qilinmoqda.⁹ Bundan tashqari, LexisNexis kompaniyasi 2023-yil mart oyidan iyul oyigacha AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Kanadada 7 950 nafar respondent o'rtasida so'rov o'tkazdi. Ulardan 3 752 nafari advokatlar, 1 239 nafari huquq fakulteti talabalari va 2 959 nafari iste'molchilardir. So'rovnoma ingliz va fransuz tillarida Forsta platformasi orqali o'tkazilgan. Generativ sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha xalqaro hisobotning qisqacha mazmuni shunday bo'lgan:

Advokatlar orasida generativ sun'iy intellektdan to'g'ridan-to'g'ri huquqiy maqsadlarda foydalanish hozircha past ya'ni atigi 15 %. Shunga qaramay, 43 % advokatlar hozirda foydalanadi yoki yaqin kelajakda huquqiy faoliyatida foydalanishni rejalashtirmoqda. 77 % advokatlar generativ sun'iy intellekt vositalari advokatlar, yuridik yordamchilar yoki sud kotiblarining ish samaradorligini oshiradi, deb hisoblaydi. Faqat huquq amaliyotidagina emas 63 % advokatlar generativ AI huquq fanini o'qitish va o'rganish uslubini ham o'zgartiradi, deb ishonadi. Garchi ChatGPT ommaga taqdim etilganiga bir necha oy bo'lgan bo'lsa-da, deyarli barcha advokatlar (89%) generativ AI vositalaridan, jumladan ChatGPTdan, xabardor. Har ikki advokatdan biri (41 %) generativ AI vositalaridan biror maqsadda foydalanib ko'rgan. Shu bilan birga, odamlar orasida xabardorlik darajasi ancha past: faqat 61 % iste'molchilar generativ AI haqida eshitgan, lekin foydalanish darajasi advokatlarnikiga o'xshash.¹⁰ Ko'rishimiz mumkinki xalqaro huquqiy platformalarning samaradorligi sezilarli tarzda oshgan. Olimlarning fikriga ko'ra, xalqaro huquqiy platformalarning roli ma'lumot

⁸ Legal industry statistics. 2025

⁹ International legal services global market report. 2025.

¹⁰ International legal generative AI report. 2023.

almashinuvini tezlashtiradi hamda xalqaro hamkorlik o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Shunday bo'lsada, xalqaro platformalarning yanada samarali ishlashi uchun til, texnika va yurisdiksiya to'siqlarini yengish zarur, bu siyosiy nuqtayi nazardan e'tiborga olinishi lozim.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquqiy platformalarning ahamiyati huquqiy amalyotda tobora muhim rol o'ynamoqda. Ammo shu bilan birgalikda bir qancha muommolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bularga misol qilib: tildagi tafovutlar, xalqaro qonunchilikdagi farqlar, an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tilmagani kabilarni aytsak bo'ladi. Hozircha texnologiyalar ko'proq advokatlarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilmoqda. Masalan, elektron pochta, hisob-kitob tizimlari, hujjatlar tahriri va boshqalar. Ammo endi texnologiyalar hujjat tahlili va hujjat loyihalash kabi murakkab vazifalarni avtomatlashtirish bosqichiga o'tmoqda. Bugungi muhim muammo shundaki, huquq maktablari hanuz 20-asr advokatlarini tayyorlayapti, ammo bizga 21-asrga mos advokatlar kerak. Ular texnologiyalar yordamida arzon, tez va elektron xizmat ko'rsatishga qodir bo'lishi zarur. Ba'zi ishlarni endi mashinalar bajara oladi. Masalan, katta miqdordagi hujjatlarni tahlil qilish ilgari o'nlab advokatlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda buni mashina bajaradi. AI tizimlari endi hujjatlar yaratish, nizolar natijasini bashorat qilishni ham o'rganmoqda. Kelajakning advokatlari esa mijoz muammolarini hal qiluvchi tizimlarni ishlab chiqadigan mutaxassislar bo'ladi: huquqiy bilim muhandislari, xavf boshqaruvchilari, tizim ishlab chiquvchilari va dizayn mutaxassislari. Ular texnologiya yordamida huquqiy muammolarga yangi yondashuvlarni ishlab chiqadi. **Richard Susskindning** fikricha, yaqin o'n yillikda mashinalar va advokatlar yonma-yon ishlaydi, ayrim ishlar esa butunlay AI zimmasiga o'tadi. Shu tariqa, advokatlik kasbi o'z shaklini o'zgartiradi — kelajakda kamroq sud jarayonlari, demak kamroq sud advokatlari bo'ladi. Advokatlar esa tanlov oldida: AI tizimlariga raqobatchi bo'lish yoki ularni yaratishda hamkorlik qilish. Susskind esa, albatta, ikkinchi yo'lni tavsiya qiladi.¹¹ Yana bir muammo shundaki, xalqaro huquqiy platformalarda til masalasi uning keng tarqalishiga to'siq bo'lmoqda. Mijozlar xalqaro platformalardan foydalanish uchun tarjimon yollashi yoki platformaning rasmiy tilini o'rganishga majbur bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida mijozlar uchun qo'shimcha xarajatlarni yuklashi mumkin. Bundan tashqari ayrim huquqiy platformalarning narxi nisbatan qimmat. Bu mijozlar sonini tushishiga olib kelishi mumkin. Xalqaro huquqiy platformalarning ijobiy tomonlari salbiy tomonlaridan ustun. Masalan, huquqiy platformalar hujjatlarni standartlashtirish, elektron imzo va masofaviy maslahatlar orqali huquqiy xizmatlarni raqamli tarzda tezlashtirish imkonini beradi. Bu esa mijoz hamda advokat o'rtasidagi vaqtni qisqartiradi hamda ish unumdorligi oshadi. Xalqaro platformalarning yana bir ijobiy tomoni shundaki, xalqaro miqyosdagi xalqaro shartnomalar, qonunlar, doktorinalar hamda maqolalarga kirish imkoniyati mavjud. Bu imkoniyat avvalo huquqshunoslar va talabalarga xalqaro huquqni amalda o'rganish va tadqiqot olib borish uchun samarali mexanizm sanaladi. Masalan, Jus Mundi platformasida tahminan 4000 dan ortiq arbitraj qarorlari, 200 dan ortiq sud qarorlari va 150 000 dan ortiq akademik manbaalar mavjud.¹² Zamonaviy dunyoda huquqiy platformalar davlatlar va muassasalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirmoqda. Birgina LexisNexis platformasi dunyoning 130 dan ortiq davlatida huquqiy axborot almashinuvi, qonunlar bazasini yagona formatda yuritish va inson huquqlarini targ'ib etish dasturlarini amalga oshiradi.¹³ Xalqaro huquqiy platformalarning o'z navbatida o'ziga yarasha kamchiliklari hamda ustunliklari bor. Aytish mumkinki, xalqaro huquqiy platformalar o'z mijozlari uchun ancha ijobiy qulayliklarga ega. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, xalqaro huquqiy platformalar kelajakda nafaqat xalqaro huquqiy amalyotni, balki huquqiy tafakkurni ham xalqaro darajada o'zgartiradi.

¹¹ Law and technology. The future of legal information. 2024.

¹² Innovative database for international law and arbitration. Just Mundi academic research. 2025.

¹³ LexisNexis foundation report. 2024.

Xulosa

Tadqiqot davomida xalqaro huquqiy platformalarning zamonaviy huquq tizimlaridagi o'rnini va ahamiyati chuqur o'rganildi. Bugungi global sharoitda huquqiy ma'lumotlarga tezkor va ishonchli kirish imkoniyatini yaratish xalqaro hamjamiyat oldida turgan muhim masalalardan biridir. LexisNexis, Westlaw, Eur-Lex, WorldLLI kabi platformalar yuridik amaliyot, ta'lim va ilmiy izlanishlarda keng qo'llanilmoqda. Ular orqali nafaqat qonunchilik bazalariga, balki xalqaro sud qarorlari, arbitraj ishlari va ilmiy sharhlarga ham erkin kirish imkoniyati yaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu platformalar advokatlar va tadqiqotchilar uchun huquqiy tahlil jarayonini soddalashtiradi, vaqtni tejaydi va qaror qabul qilishni aniqlashtiradi. LexisNexis hisobotida qayd etilishicha, so'rovda qatnashgan advokatlarning 77 foizi generativ sun'iy intellekt vositalari ularning ish unumdorligini oshiradi, deb hisoblagan. Bu raqamlar xalqaro huquqiy amaliyotda raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlilining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu platformalar turli yurisdiksiyalar o'rtasida huquqiy integratsiyani kuchaytirib, global miqyosda huquqiy tafakkurni uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro huquqiy platformalarning ijobiy jihatlaridan biri bu oshkorlik va huquqiy adolatni mustahkamlashidir. Masalan, Jus Mundi platformasida xalqaro arbitraj ishlari bo'yicha minglab hujjatlar ochiq e'lon qilinadi, bu esa fuqarolik nazoratini kuchaytiradi va huquqiy jarayonlarga ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, bu tizimlar ta'lim sohasida ham muhim o'rin tutmoqda. Ko'plab universitetlarda talabalar xalqaro sud amaliyotlarini tahlil qilishda ushbu platformalardan foydalanib, amaliy tajriba orttirishmoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham aniqlangan. Eng avvalo, platformalarning aksariyati ingliz tilida faoliyat yuritadi, bu esa ingliz tilini yaxshi bilmagan foydalanuvchilar uchun cheklov tug'diradi. Shuningdek, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda texnik infratuzilma va internet tezligining pastligi ham ulardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, ma'lumotlarning ishonchliligi va maxfiylik masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli, xalqaro miqyosda huquqiy platformalarni rivojlantirish bilan bir qatorda axborot xavfsizligi, etik me'yorlar va malaka oshirish yo'nalishlariga ham e'tibor qaratish zarur. O'zbekiston misolida aytganda, xalqaro huquqiy platformalardan foydalanish so'nggi yillarda faollashgan bo'lsa-da, hali bu jarayon boshlang'ich bosqichda. Milliy qonunchilikni raqamlashtirish, sud qarorlarini ochiq e'lon qilish va xalqaro bazalar bilan integratsiya qilish bu yo'nalishda muhim qadam bo'ladi. Shu bois, huquqiy platformalardan foydalanishni kengaytirish, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish, advokatlar va talabalar uchun amaliy treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro huquqiy platformalar nafaqat yuridik amaliyot, balki ta'lim va ilmiy izlanishlar sifatini ham oshiradigan samarali vositadir. Ular orqali huquqiy madaniyat yuksaladi, global miqyosda adolat va huquq ustuvorligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi. Shu sababli, bu sohada islohotlarni chuqurlashtirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov.X.R. va boshq. "Axborot tizimlari". 2013. O'quv qo'llanma.
2. Justice Defenders. 2021. Ensuring access to justice in African prisoners during Covid-19. <https://www.justice-defenders.org>.
3. Digital justice and rule of law: Leveraging technology for access to justice. New York. United Nations.
4. Effects of Ross Intelligence and NDAS, highlighting the need for AI regulation. 2024.

5. Eur-Lex. 2025. <https://eur-lex.europa.eu>.
6. Encyclopedio of big data. 2022.
7. Legal industry statistics. 2025.
8. International legal services global market report. 2025.
9. International legal generative AI report. 2023.
10. Law and technology. The future of legal Information. 2024.
11. Innovative database for International law and orbitration. Just Mundi academic research. 2023.
12. LexisNexis foundation report. 2024.



INNOVATIVE
ACADEMY